


## 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 4 trln. 402,8 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 109,3 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash - 134,0 %, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash - 15,2 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish - 8,3 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoat - 7,5 % ga o'sishi hisoblanadi.

### 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



## **Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.**

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmi 240,2 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,5 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan ko'mir qazib olish - 1,3 martaga, chaqiq tosh - 20,0 % ga, osh tuzi - 27,6 % ga oshdi, xom neft (97,4 %) pasaygan.



## **Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

<b>2018-yil yanvar-dekabrida ishlab chiqarilgan</b>	<b>Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari</b>	<b>2019-yil yanvar-dekabrida ishlab chiqarilgan</b>	<b>O'sish sur'ati, %</b>
---	--	---	----------------------------------

**Ko'mir, ming t.**

181,0



241,9

133,6



**Neft, ming t.**

84,2



82,0

97,4



<b>2018-yil yanvar- dekabrida ishlab chiqarilgan</b>	<b>Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari</b>	<b>2019-yil yanvar- dekabrida ishlab chiqarilgan</b>	<b>O'sish sur'ati, %</b>
--	--	--	----------------------------------

**Osh tuzi, ming t.**

7,2



9,2

127,6



**Qum, ming t.**

43,6



50,0

114,6



**Chaqiq tosh, ming t.**

68,7




82,5


120,0




**Neft qazib olish, ming t.**



### Ko'mir qazib olish, ming t.



### Chaqiq tosh qazib olish, ming t.




### Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3 trln. 850,9 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 87,5 % ini tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi - 0,1 % ni (2018-yil yanvar-dekabr oylarida - 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 0,4 % ni (0,3 %), o'rta-quyi texnologiyali - 24,3 % (22,2 %) ni va quyi texnologiyali - 62,7 % (64,9 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha  
ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi

2019 yil yanvar-dekabr



2018 yil yanvar-dekabr



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish - 38,8 % (2018-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish 106,5 %) ni, oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish - 29,4 % (97,5 %) ni, mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasi - 6,7 % (118,4 %) ni, yog`och va po'kak buyumlar, pohol va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog`oz va qog`oz mahsulotlari va mebel ishlab chiqarish - 3,1 % (107,0 %) ni, kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish - 0,4 % (108,4 %) ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganda bir qavatli ip (tikuv iplaridan tashqari) - 7,6 martaga, qurilish uchun qorishmalar va aralashmalar - 3,0 martaga, quyish uchun tayyor beton - 1,5 martaga, boshqa ip gazlamalar - 1,5 martaga, uzum vinolari - 1,3 martaga, osh tuzi - 1,3 martaga va un - 23,8 % ga oshdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda  
yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat  
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2018-yil yanvar-dekabrida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-dekabrida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
<b>Paxta tolasi, ming t.</b>			
67,6		13,7	20,3 <span style="color: red;">↓</span>
<b>Tozalangan kungaboqar yoki masxar yog'i, ming t.</b>			
0,0		206,0	- <span style="color: green;">↑</span>
<b>Un, ming t.</b>			
101,1		125,1	123,8 <span style="color: green;">↑</span>
<b>Aroq, ming l.</b>			
1902,8		1552,2	81,6 <span style="color: red;">↓</span>
<b>Dizel yoqilg'isi, ming t.</b>			
11,8		9,9	83,9 <span style="color: red;">↓</span>



### **Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 245,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,6 % ni) tashkil etdi.


2019-yilning yanvar-dekabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida gazsimon yoqilg'l ishlab chiqarish va taqsimlash o'tgan yilning mos davriga nisbatan - 2,5 martaga, elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash - 13,2 % ga oshganligi kuzatildi.

### **Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

<b>2018-yil yanvar-dekabrida ishlab chiqarilgan</b>	<b>Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari</b>	<b>2019-yil yanvar-dekabrida ishlab chiqarilgan</b>	<b>O'sish sur'ati, %</b>
---	--	---	----------------------------------

#### **Elektroenergiya, mln.kVt/s**

1,9



3,1

161,2



#### **Issiqlik energiyasi, ming Gkal**

73,0



66,3

90,8



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,  
chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.**



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 65,9 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,5 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar 1,7 martaga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 1,6 martaga, boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar - 1,6 martaga, xavfsiz chiqindilarga butunlay yo'qotish uchun ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 1,6 martaga, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlari - 17,9 % ga, elektr energiyasini sotish bo'yicha xizmatlar 29,8 % ga oshganligi, tarkibida qora metallar bo'lган ikkilamchi xom ashyo (ikkilamchi xom ashyo materiallari) (68,8 %) kamayganligi kuzatildi.

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish  
va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat  
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

<b>2018-yil yanvar-dekabrida ishlab chiqarilgan</b>	<b>Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari</b>	<b>2019-yil yanvar-dekabrida ishlab chiqarilgan</b>	<b>O'sish sur'ati, %</b>
---	--	---	------------------------------

**Tarkibida qora metallar bo'lган ikkilamchi xom ashyo, ming tonna**

13,1



9,0

68,8



**Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish  
bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm**

2,2



3,7


166,2



### **Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.**

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1662,5 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 11,9 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 37,8 % ni tashkil etdi.

#### **2019-yilning yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi va o'sishi sur'ati**



2018-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 47,2 % dan 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida 51,3 % ga oshdi, nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 52,8 % dan 48,7 % ga pasayganligi kuzatildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 4,9 % ni (2018 yil yanvar-dekabr oylarida 6,9 %) tashkil etdi.



Hududlar bo'yicha 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlari  
ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati


	Mlrd.so'm	Jamiga nisbatan ulushi, %	2018 yil yanvar-dekabrga nisbatan o'sish, %
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>1662,5</b>	<b>100,0</b>	<b>111,9</b>
Termiz sh.	296,8	17,8	110,0
tumanlar:			
Angor	55,9	3,4	113,9
Boysun	51,5	3,1	111,9
Denov	327,5	19,8	106,9
Jarqo'rg'on	142,9	8,6	121,3
Qumqo'rg'on	59,6	3,6	113,7
Qiziriq	42,8	2,6	115,6
Muzrabot	33,5	2,0	114,3
Oltinsoy	72,2	4,3	117,5
Sariosiyo	86,4	5,2	110,5
Termiz	110,4	6,6	103,3
Uzun	58,3	3,5	113,3
Sherobod	88,6	5,3	91,4
Sho'rchi	236,1	14,2	129,4

## Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 782,0 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 17,8 % ni tashkil etdi.

## Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %



Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning barchasi ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) korxonalar tomonidan amalga oshirildi.

### Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Termiz shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 18,8 %), Jarqo'rg'on (21,1 %), Denov (13,1 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.




Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi


	Mlrd.so'm	2018 yil yanvar-dekabrga nisbatan o'sish, %
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>4402,8</b>	<b>109,3</b>
Termiz sh.	826,4	111,3
tumanlar:		
Angor	114,1	100,3
Boysun	80,7	114,4
Denov	575,0	112,3
Jarqo'rg'on	930,4	113,9
Qumqo'rg'on	208,2	93,8
Qiziriq	137,4	102,6
Muzrabot	92,7	102,5
Oltinsoy	84,3	112,9
Sariosiyo	342,7	107,7
Termiz	146,7	108,4
Uzun	128,7	93,1
Sherobod	334,6	168,5
Sho'rchi	400,9	100,1

### Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi

(2019-yil yanvar-dekabr oylarida 2018 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, %)




### Surxondaryo viloyati ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, %



Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora tadbirlar natijasida, Sherobod (2018-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 168,5 %), Boysun (114,4 %), Jarqo'rg'on (113,9 %), Oltinsoy (112,9 %) tumanlarida sezilarli darajada sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi oshishiga imkon berdi.

Shu bilan birga, iste'mol tovarlari hajmini Sho'rchi (2018-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 129,4 %), Jarqo'rg'on (121,3 %), Oltinsoy (117,5 %), Qiziriq (115,6 %), Muzrabot (114,3 %) va Angor (113,9 %) tumanlarida sezilarli darajada oshdi.

### **2019-yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va o'sishi ko'rsatkichlari**



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanish tahlili Termiz shahrida (5656,3 ming so'm), Jarqo'rg'on (4317,6 ming so'm), Sho'rchi (1947,2 ming so'm), Sherobod (1751,8 ming so'm), Sariosiyo (1679,0 ming so'm), Denov (1512,8 ming so'm) va Termiz (1355,8 ming so'm) tumanlarida ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 639,5 ming so'm bo'lgan holda, Termiz shahrida - 2031,2 ming so'mni, Sho'rchi tumanida - 1146,6 ming so'mni, Termiz tumanida - 1020,5 ming so'mni, Denov tumanida - 861,6 ming so'mni va Jarqo'rg'on tumanida - 663,0 ming so'mni tashkil etdi.

**2019-yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish, ming so'm**


	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol tovarlari
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>1693,7</b>	<b>639,5</b>
Termiz sh.	5656,3	2031,2
tumanlar:		
Angor	871,3	427,1
Boysun	680,0	434,5
Denov	1512,8	861,6
Jarqo'rg'on	4317,6	663,0
Qumqo'rg'on	864,1	247,6
Qiziriq	801,0	249,1
Muzrabot	662,8	239,5
Oltinsoy	483,4	414,2
Sariosiyo	1679,0	423,5
Termiz	1355,8	1020,5
Uzun	746,4	337,9
Sherobod	1751,8	464,1
Sho'rchi	1947,2	1146,6

Shu bilan birga, iste'mol tovarlarining eng katta ulushi Denov tumaniga (viloyat iste'mol tovarlarining 19,8 %), Termiz shahriga (17,8 %) va Sho'rchi (14,2 %) tumaniga to'g'ri keldi.

### **Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.**

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 2 trln. 331,5 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Ularning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 53,0 % ni tashkil etdi.

### **2019-yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %**




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Boysun (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Oltinsoy (99,9 %), Uzun (99,1 %), Qiziriq (94,8 %), Termiz (88,7 %) va Angor (82,7 %) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichik ulush Sherobod (26,9 %), Jarqo'rg'on (36,3 %), Sho'rchi (39,1 %) tumanlari va Termiz shahrida (34,6 %) kuzatildi.

### Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.


Bugungi kunda viloyatda 2659 ta korxona faoliyat yuritmoqda, shundan 549 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiyligi sonining 20,6 %) Termiz shahriga, 304 tasi (11,4 %) Denov tumaniga, 190 tasi (7,1 %) Termiz tumaniga va 189 tasi (7,1 %) Jarqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik (2020-yil 1 yanvar holatiga)



2019-yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda 987 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 19,1 foizi Termiz shahri, 12,8 foizi Denov tumaniga, 7,7 % Jarqo'rg'on tumaniga va 7,1 % Termiz tumaniga to'g'ri keladi.

**Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik  
(2020-yil 1 yanvar holatiga)**





## **Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining amalga oshirilishi**

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi, mazkur dastur doirasida kiritilgan 14 ta loyiha bo'yicha 56,4 mlrd.so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lib, 270,3 ming AQSH dollari miqdorida mahalliylashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi va 271 ta yangi ish o'rnlari yaratildi.

O'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 2019 yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan ish o'rnlari soni 90,3 martaga oshdi. Shu bilan birga, 2019 yil yanvar-dekabr oylarida mahalliylashtirilgan mahsulotlar eksporti yo'lga qo'yildi.

### **Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining asosiy ko'rsatkichlari**

	<b>2018 yil yanvar-dekabr</b>	<b>2019 yil yanvar-dekabr</b>
Loyihalar soni, birlik	10	14
Korxonalar soni, birlik	9	14
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm	0,6	56,4
Eksportga qilingan mahalliylashtirilgan mahsulot hajmi, ming. AQSH doll.	-	270,3
Yaratilgan yangi ish o'rnlari, birlik	3	271

**Sanoat statistikasi bo'limi  
Aloqa telefoni: (76) 223-07-24**